



«16» 09 2022 йил

Фарғона шаҳар

Республика ихтисослаштирилган наркология илмий амалий тиббиёт маркази Фарғона  
вилоят филиалини бинони жорий таъмирлаш ишлари учун давлат харидларига куйилган  
Лот№22110012146653 буйича протокол мухокама килиш комиссияси йиғилиши

## 2-СОНЛИ МАЖЛИС БАЁНИ

Қатнашдилар:

комиссия раиси	Б.Ибрагимов –Бош шифокор
комиссия аъзоси	С.Давлатов –Ихтиёрий булим мудири
комиссия аъзоси	М.Қодиров–Амбилотор булим бошлиғи
комиссия аъзоси	Р.Умурзоков-Кундузги булим мудири
комиссия аъзоси	У.Исмоилов –Хукук шунос

### КУН ТАРТИБИДАГИ МАСАЛА:

2022-йилда Республика ихтисослаштирилган наркология илмий амалий тиббиёт маркази  
Фарғона вилоят филиалини бинони жорий таъмирлаш ишлари учун давлат харидларига куйилган  
Лот№22110012146653 буйича протокол мухокама килиш тўғрисида.

Кун тартибидаги масала юзасидан Республика ихтисослаштирилган наркология илмий  
амалий тиббиёт маркази Фарғона вилоят филиалини томонида утказилган танлов буйича  
Республика ихтисослаштирилган наркология илмий амалий тиббиёт маркази Фарғона вилоят  
филиалини диретори Б.Ибрагимов суз олиб тонлов шаффофф хамда талабларга мос утганини айтиб  
утди..

Шундан сўнг сўз олган Республика ихтисослаштирилган наркология илмий амалий тиббиёт  
маркази Фарғона вилоят филиалини комиссияси азолари томонидан мухокома кунлари хечкандай  
этирозлар келиб тушмаганлиги хамда хечкимда этиrozлар йўклигини айтиб ўтишди

Б.Ибрагимов

С.Давлатов

М.Қодиров

Р.Умурзоков

У.Исмоилов

## Joriy ta'mirlash ishlari pi amalga oshirish bo'yicha

### SHARTNOMA № 17

2022 yil « 16 »Sentyabr

Farg'ona shahri

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Respublika ixtisoslashtirilgan narkilogiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Fag'ona viloya filiali nomidan bosh vrach B.X.Ibragimov (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomonidan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi "Master na chas" O.K (keyingi o'rinnlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar Z.Bo'taboev ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

#### 1. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan Respublika ixtisoslashtirilgan narkilogiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Fag'ona viloya filiali binosini joriy ta'mirlashni loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

#### 2. SHARTNOMA BAHOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha-smeta hamda ekspertiza hujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar, QQSni hisobga olgan holda jami 56 900 000 (Ellik olti million to'qqiz yuz ming) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

#### 3. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari to'lik bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlar qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yuli bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar hakikatda bajarilgan ishlar hajmiga qarab, avans mablag'larini chegirgan xolda amalga oshiriladi.

#### 4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 20 kalendar kun muddat ichida «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari yakunlanishi shart.

4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga hamda amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lismeni va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rivo'y qilgan holda amalga oshiradi.

#### 5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBDURIYATLARI.

5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga asosan to'lik hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi. Loyiha-smeta hujjatlariga mos kelmagan ishlar "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilinmaydi va shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingen pul mablag'ları o'tkazib berilmaydi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi, hamda "Pudratchi"dan loyiha-smeta hujjatlariga mos ravishda qurilish ishlarini olib borishni talab qilishga haqlidir.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarini bajarishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratib beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shabl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. «Buyurtmachi» tomonidan tuzilgan dalolatnoma (qurilish ishlarini belgilagan talablarga mosligini tekshirish dalolatnomasi) asosida bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 3 kun muddat ichida «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi. Bartaraf etilmagan taqdirda "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingen pul mablag'ları o'tkazib berilmaydi hamda qonunchilik hujjatlarida nazarada tutilgan choralar amalga oshiriladi.

#### 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomoniga yetkazilgan zararni to'liq qoplayadi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatda boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatining 0.5% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga penya to'laydi, lekin

bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak. Penya «Buyurtmachi» tomonidan shartnoma sharti bo'yicha qurilish ishlari yakunlanishi belgilangan kundan boshlab kechiktirilgan kun oralig'idagi muddat hisobga olingen holda bir tomonlama amalga oshiriladi.

6.3. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0.4% miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasini 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Penyalar to'lanishi taraflarni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

#### 7. FORS-MAJOR HOLATLARI.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi, tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar, hukumat qarorlari va boshqa yengib bo'lmas kuch holatlari natijasida kelib-chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

#### 8. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'lik korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2 Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korruptsianing oldini olish choralarini tan oladi va ularga roya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'lik munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishida pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdag'i xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi.Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4 Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5 Tarfning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.


#### 9. QO'SHIMCHA SHARTLAR.

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo, taraflarning kelishivi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa «Buyurtmachi» joylashgan hududdagi iqtisodiy sud va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararlarni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha tuzildi. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, hududiy g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

#### 10. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI.

«PUDRATCHI»	«BUYURTMACHI»
Master na chas OK	Respublika ixtisoslashtirilgan narkalogiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Farg'ona viloyat filiali
Manzil: Farg'ona shahar Ashurova ko'chasi 21-uy	Manzil: Farg'ona sh. Yangi zamon 61 uy
Tel: 95 022 12 17	Sh/r 400321860304017073201054015
Xisob varaq 20208000305078614001	Tashkilotning STIRi: 201298059
Bank nomi: Hamkor bank	Farg'ona shahri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi
MFO 01003 STIR 306432306	YaG'H: 23 402 000 300 100 001 010
Rahbar: 	Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKKM)
Z. Bo'taboev	MFO: 00014
	G'aznachilik bo'linmasining STIR: 201122919
	Rahbar: 
	Б.Х.Ибрагимов